

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
ISTANBUL TIJORAT UNIVERSITETI
QOZON FEDERAL UNIVERSITETI
BALIKESIR UNIVERSITETI**



**“SIFATLI TA’LIM VA INTERDISIPLINAR YONDASHUV:
MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA HAMKORLIK”**

xalqaro ilmiy amaliy anjuman

MATERIALLARI

25-26-may

GULISTON-2023

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim,
fan va innovatsiyalar vazirligi
Guliston davlat universiteti
Istanbul tijorat universiteti
Qozon federal universiteti
Balikesir universiteti

“Sifatli ta'lim va interdisiplinar yondashuv: muammolar, yechimlar va hamkorlik”

xalqaro ilmiy – amaliy anjuman

materiallari

25-26-may

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi tugrisidagi”gi PF-4947-sonli Farmoni.
3. G‘.I.Muxamedov, U.N.Xodjamqulov. Pedagogik talim innovatsion klasteri: tarif, tavsiya, tasnif. Chirchiq 019 yil.
4. U.Xodjamqulov. Pedagogik talim innovatsion klasteri (Toshkent viloyati tajribasi).

ANVAR OBIDJONNING HAJVIY HIKOYALARIDA MAHORAT MASALASI

Oqbo‘taye Elbek Abdurazzoq o‘g‘li

GulDU, “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasida tayanch doktoranti
 Guliston davlat universiteti
 e-mail: masterrprikol@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola so‘nggi davr adabiyoti namoyondalaridan biri Anvar Obidjonning nasrining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni, nasriy ijod namunalarida mahorat masalasi, nasrda o‘zbek hajvchilik maktabi an‘analarini davom ettirish bilan birgalikda jahon hajvchiligi yutuqlari bilan boyitganligi, prozada kulgu uyg‘otishda ishlatgan vositalar tahliliga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: proza, yumor, satira, lirika, Anvar Obidjon, hajviya, mubolag‘a.

Annotation: This article is about the role of the prose of one of the representatives of recent literature, Anvar Obidjon, in Uzbek literature, the issue of mastery in the examples of prose creation, the continuation of the traditions of the Uzbek school of humor in prose, and the fact that it is enriched with the achievements of world humorism, laughter in prose focused on the analysis of the means used in awakening.

Key words: prose, humor, satire, lyrics, Anvar Obidjon, comedy, exaggeration.

Аннотация: В данной статье речь идет о роли прозы одного из представителей литературы новейшего времени Анвара Обиджона в узбекской литературе, вопросе мастерства в образцах прозаического творчества, продолжении традиций узбекской школы юмора в прозе, и тем, что она обогащена достижениями мирового юморизма, смех в прозе ориентирован на анализ средств, используемых при пробуждении.

Ключевые слова: проза, юмор, сатира, лирика, Анвар Обиджон, комедия, преувеличение.

Badiiy adabiyot rivojlanishiga nazar tashlasak, undagi adabiy meros va vorisiylik, an‘ana va yangilik, shakl va mazmun birligi, badiiyat, asar tili, obrazlar tizimi, janrlar taraqqiyoti kabi qator omillar barcha davrlarda muhim o‘rin tutganini kuzatish mumkin. Bugungi adabiyot o‘tmish adabiy merosi zaminida rivojlanadi, undan oziqlanadi. Adabiy meros deganda o‘tmishda yaratilgan, umummilliy va umumbashariy qimmatga ega bo‘lganidan vaqt hukmini yengib kelayotgan adabiy-badiiy qadriyatlarning jami tushuniladi.

Bugungi adabiyot – o‘tmish adabiyotidan qolgan merosning vorisi. Adabiy meros asosida adabiy an‘analar shakllanadi. Adabiy an‘ana – zamonamiz, zamonaviy adabiyotimiz uchun qimmatga ega bo‘lganidan bugunda barhayot merosdir. Adabiyot taraqqiyotining uzliksiz jarayonida har bir davr oldingi davrlardan eng yaxshi jihatlarni o‘ziga singdiradi, ularni sayqallaydi, maromiga yetkazadi, ayni paytda, o‘zidan ham unga yangilik qo‘shishga intiladi. Shu tariqa, adabiyotning uzliksiz taraqqiyoti ta‘minlanadi.

Bu holat o‘zbek hajvchiligiga ham tegishlidir. Hajvchilikdagi yetuk shakllar, turli janrlar yangi badiiy-estetik qarashlar zaminida qayta ishlanib, novatorona qo‘llanishishi natijasida bugungi kunda o‘ziga xos badiiy-estetik vazifani bajarmoqda, hajviyalar turli ijtimoiy masalalarni yoritishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, Anvar Obidjonning epik va liro-epik hajviy asarlari fikrimizning isboti bo‘la oladi. Hajviy asarlardagi yaratilgan

obrazlarning individualligi yozuvchi mahoratini yaqqolroq namoyon etadi.

O'zbek adabiyoti tarixida hajviy obrazlarning o'ziga xos namunalarini kuzatish mumkin. Zero, hajviy obrazlar yaratish an'anasi xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Xalq ertak va hikoyatlari, rivoyat va afsonalardagi turli hajviy obrazlar adib asarlarida yangilangan shaklda namoyon bo'ladi.

Anvar Obidjon o'z hikoyalarida ham satirik, ham yumoristik obrazlarni yarata bilgan. Hajviy obraz yaratishda xalqchilik tamoyiliga amal qiladi. Uning ko'pchilik qahramonlari o'ta samimiy, qing'irlikni xayoliga keltirmaydigan oddiy qishloq kishilari. Hikoyalardagi qahramonlarning qanday kishilar ekanligi ularga muallif tomonidan berilgan ta'riflar va personajlar nutqi orqali anglashilib boriladi.

Anvar Obidjon hajviy hikoyalarida satiradan ko'ra yumorga ko'proq murojaat qiladi. Insonlardagi tuzatsa bo'ladigan kamchiliklarni yengil kulgu orqali namoyon qiladi. Hikoyalaridagi o'ziga xosliklardan biri shundaki, yozuvchi yaratgan qahramonlariga antiqa nomlar qo'yadi. Masalan "Baloga qolgan futbolchi" to'plamiga kirgan hikoyalar qahramonlarining nomlarida timsollilik va ramziylik kuzatiladi: Patiyydin, Zilzilaxon, Go'ga Gadoevich, So'zpardoziy, Lug'atxo'jaev, Serkaxon, Parriqiming'i, Urug'ali, Qurug'ali, Qovoqboev, Shavlaev, Qovunchiev, Markaev, va hokazo.

Muallif bu ismlarni o'z g'oyaviy maqsadini amalga oshirish uchun o'ylab topgan, lekin bu ismlar shunchaki kulgu uyg'otishdan ko'ra kengroq ma'no uchun xizmat qilgan deyish mumkin. Ismlar qahramonlarning fe'l-atvori, jamiyatdagi o'rni, qay sohaga mansubligini o'qirmanga bildirib turadi. Masalan: "Shiliqabiliq" hikoyasi qahramonlari So'zpardoziy va Lug'atxo'jaevlar tilshunos olimlar ekanini hikoya matnida aytib o'tilgan bo'lsa ham, muallif tomonidan ularga berilgan ismlar orqali ularning shu soha uchungina "tug'ilgan"i yoki kasbini ko'z-ko'zlash maqsadida o'zining haqiqiy ismini o'zgartirib olgan odamlar ekanini anglashiladi. Har ikki holatda ham satirik asar uchun muhim xususiyatlardan bo'lgan kulgu va mo'ljalga olingan muammoning ayovsiz tanqidi mavjud.

"Shiliqabiliq" hikoyasida muallif sohta olimlarning karikaturasini yaratadi. Haqiqiy olim va riyokor, aldamchi, o'z sohasini to'liq anglamagan sohta olimlarning farqini ko'rsatishga harakat qiladi. Hikoya voqealari juda qisqa fursat ichida ro'y berib o'tadi, hikoyada qatanashuvchi qahramonlar bir necha kishidan iborati: "katta olim" So'zpardoziy, uning sodiq shogirdi Lug'atxo'jaev, va oddiy, lekin zakiy xalq vakili sifatida hikoyada qatnashuvchi qariya.

Hikoya boshida muallif ikki "ilm ahli"ni ta'riflab o'tadi. O'qirman bu ta'riflardan hech ham ajablanmaydi, chunki bu suhbat ustoz-shogirdning oddiy ilmiy suhbatiga yo'yiladigan gaplar. Lekin ustoz-shogird tilshunoslarning o'zaro bahslari boshlangani zahoti, ularning nutqi orqali, bu olimlarning asli ochilib boradi. Shogird ustoziga tilshunoslik sohasida ilmiy izlanishlar natijasida joy nomlarining kelib chiqishi bo'yicha yangilik topganini suyunib gapirib beradi: "Keyingi oylarda yuz xil lug'at titkilab kunim o'tdi. Povulg'on degan qishloqning nomi nimadan kelib chiqqanini aniqlash ustida ko'p bosh qotirdim. Ba'zi olimchalarimizning bu boradagi taxminlari meni qoniqtirmaydi"⁴³. [1.9]

Ustoziga laganbardorlik yoqishini sezib turgan Lug'atxo'jaev atayin o'z "yangilik"ini aytish asnosida boshqa olimlarni "olimchalar" deb kamsitib gapiradi.

Lug'atxo'jaev o'z boshvoqchisi domla So'zpardoziyning izdoshlarini "olim", qolganlarni «olimchalar» deb atar, bu iboralar ustozga yog'dek singayotgani har safar uning yuzidan yarq-yurq sezilib turardi. "Povulg'on, Pungon singari joylarning nomi mo'g'ulchada soqchilar qo'rg'onchasi ma'nosini anglatadi degan qarashlarga mendayam shubha bor, -Ulug'bekka uqtirayotgan kepatada so'z qotdi domla So'zpardoziy. -Bahsli fikr bu. Harqalay, biron yangiroq talqin topdingmi?" [1.9]

Hikoya nasrdagi eng kichik janr bo'lganligi tufayli, voqealar nisbatan tarang bo'lishi, ular

⁴³ Анвар Обиджон.Балога қолган футболчи. (ҳажвий ҳикоялар). Тошкент. 010-йил. 9-бет

tor zamon doirasida kechganligi sababli muallif, qahramonlar xarakteri, ularning tutumlari haqidagi haqiqatni tezlik bilan ochib berishi talab qilinadi. Yuqoridagi parchada ustoz-shogirdning insoniy hislatlarida kamchilik borligini ilg'agan o'qirman, ustozning savoliga javob tariqasida aytilgan yangilikdan so'ng, bu ikki qahramonning nafaqat insoniy fazilatlarida qusuri borligi, balki, o'z sohasidan ham bexabar odamlar ekanligini angelaydi.

Hikoya davomida, kitobxon bir tomondan ustoz-shogirdning ahmoqona farazlari ustidan miriqib kulsa, ikkinchi tomondan, o'zini olim sanab, katta baho beradigan insonlarning tipik namunalari mahorat bilan yarata bilganligini angelaydi. Otdan tushsayam, egardan tushmaydigan qahramonlar o'zlarni qanchalar "bilimli" ekanligini qariyaga ko'rsatish umidida, turli so'zlarni tilimizga qaysi tildan kirib kelganini o'zlaricha tushuntirib o'tishadi. Lekin, qariya bu ikki olimni gaplarini yana xato hisoblaydi:

– Senlarda yo hamiyat yetishmaydi, yo asli zoting boshqa zuvaladan, – ustoz va shogirdning basharasidan o'zbeklikni sinchiklab qidirdi qariya. –O'zbekning gapini bir arabga ilinasan, bir nemisga. [1.10]

Hikoyada ushbu so'zlar qariya tilidan aytilgan bo'lsa-da, muallif satirik tig'ining eng keskir nuqtasi shu so'zlarda namoyon bo'ladi, u shu qariya obrazi orqali jamiyatdagi o'z tiliga xiyonat qilguvchi, o'z xalqi bilan yaqin bo'lolmagan, xalqi tarixini bilmay, boshqa xalqlarni bilishi bilan maqtanib, o'z xalqidan nafratlangan chala olimlar ustidan kuladi.

Hajviy asarlarda sarkazm ko'pincha darjama-daraja oshib boradi. Oddiy bir qariyani mensimay, uning xato so'zlayotganini bir- biriga uqtirib turgan ustoz-shogirdning ko'nglida bir-biridan xufyona istak paydo bo'ladi. Ikkisi ham boyagi qariyaning Bo'ka so'zining kelib chiqishi haqidagi fikriga ko'ngillarida ishonch bildirib bo'lishgandi, ikkovi ham bu yangilikni o'z nomiga yozdirib qo'yishni mo'ljall qilishadi.

Anvar Obirjon personaj nutqidan unumli foydalanadi. Mazkur hikoyada ham har bir personaj nutqi orqali ularning ijtimoiy mavqeyi, tafakkur tarzi, insoniylik fazilatlarini, ma'naviy nuqsonlari yaqqol ko'rinadi. So'zpardoziyning personaji tilidan yangraydigan "gulpadar" so'zi orqali o'qirmanda xalq orasida keng tarqalgan haqorat so'zni madaniylashtirib olgan qahramon ko'z oldiga keladi. Muallif o'zini juda madaniyatli olim deb hisoblaydigan obrazni ham tashqi ko'rinishi tavsifi, ham ichki dunyosining o'z nutqi orqali namoyon bo'lishi holati orqali ko'rsatishga muvaffaq bo'ladi.

Lug'atxo'jaev nutqidagi laganbardorlik, mutelik, mantiqsizlik o'qirmanda kulgi bilan birga g'ashlik paydo qiladi. Nima so'z demasin ustoziga yoqishni o'ylaydigan, ilmi bilan emas, sohta hushomadlari bilan ustozni e'tiboriga tushishni maqsad qilgan bu qahramon ilm yo'lga adashib kirib qolgan, lekin buni tan olishni istamaydigan, o'z bilimsizligi, saviyasizligini yopish uchun tinmay urinadigan "ilm odamlar"idan biri ekanligi oydinlasha boradi. Ustoz uchun borini berishga tayyor bo'lib ko'rinayotgan "itoatkor" shogirdning ham, ilm yo'lida shogirdini "boshini silaydigan" ustozning ham hikoya davomida asl qiyofalari ochilib boradi va hikoya nihoyasida So'zpardoziy oddiy qariyadan eshitib olgan so'zini tezroq e'lon qilishni ko'nglidan o'tkazayotganida va Lug'atxo'jaevning ham shu haqida o'ylayotganligida ko'rinadi. Tili boshqa, dili boshqa bu zotlarning bir-birini madaniy aldashi qahramonlarning ma'naviy qiyofasini to'liq ochib beradi.

Ushbu hikoyada muallif nutqi alohida ahamiyatga ega. U bekordan bekorga qahramonlar, voqealarga aralashavermaydi, o'rni bilan vaziyatni oydinlashtiradi. "Bizda ko'p kishilar avtor aytmoqchi bo'lgan gapni qahramonlar gapirsa qiziqroq bo'lardi, deb o'ylashadi. Bu xato. Avtor aytishi lozim bo'lgan gapni qahramonlardan birortasiga topshirish yaramaydi. Shunday qilingan taqdirda qahramonlar tussiz bo'lib qoladi, avtorning jarchisiga aylanadi. Qahramonlar aytishi kerak gaplarni esa, avtor o'z ustiga olib, uchinchi shaxs tilidan gapirmasligi kerak".[3.49]

Muallif tilidan yozilgan hikoyalarda esa adibning imkoniyatlari biroz ko'payadi. Bu hikoyalarda muallif har bir qahramonga alohida ta'rif berib, hajviy yo'sinda, ba'zan istehzo bilan

voqealar rivojini kengroq nigoh bilan tasvirlaydi. “Ma’lumki, badiiy ijodda qahramon obrazini yaratishda shaxsning biror ruhiy holati, emotsional dunyosi, shaxsiy energiasi va potensial imkoniyati badiiy gavdalantiriladi. Bu borada ichki nutq, dialog va epik hikoyalashning roli favqulodda muhim. Ichki nutqda, asosan, kishining birovga oshkor qilish mumkin bo’lmagan his-tuyg’ulari, kechinmalari ifodalansa, dialogda baxslar, o’zaro fikr almashuvlar, suhbatlar va dunyoqarashlar “janggi” asosiy hisoblanadi. Muayyan murakkab vaziyatlarda esa qahramonlar o’zlarining qalbini, shaxsiy intilishlarini ichki nutqda ochib beradi. Epik hikoyalashda esa qahramon o’zi aytolmagan, ifoda qilishga qiynalgan holatlarni yozuvchi (avtor nutqi orqali) butun murakkabligi bilan o’quvchiga namoyon etadi”.[4.119]

“Baloga qolgan futbolchi” hajviy hikoyalar to’plamida ellikdan ortiq hikoyalar mavjud. Hikoyalar mavzulari ham xilma xil. Hajviy asarlar boshqa yo’nalishdagi asarlardan ayni davrda bo’layotgan voqealarga tezkorlik bilan javob berishi bilan xarakterlidir. To’plamdan o’rin olgan hikoyalarda qahramonlarning ko’pchiligi endigina mustaqillikka erishgan yosh davlat fuqarolari, bozor iqtisodiyoti nima ekanini to’la fahmlay olmayotgan, hali-hanuz sobiq tuzumni, boqimandalikni qumsab yurgan kishilar sifatida hajv qilinadi. Bu hajviyalarda shunday o’tmishni qumsab, olg’a qadam bosishdan cho’chiotgan insonlar fosh etiladi. Bunday usulni XX asr o’zbek adabiyotining zabardast vakili Abdulla Qahhorning hajviyalarida ham ko’rishimiz mumkin.

Anvar Obidjonning “Yerliklar” hajviy hikoyalar to’plamidan o’rin olgan “Shomurod hasibfurushning futbolga borgani” hikoyasiga izoh sifatida qo’yilgan “Aziz Nesinga ta’zim ila”[2.49] deb qo’yilishi ham bejiz emas. Anvar Obidjon jahon adabiyotining zabardast vakili, turk yozuvchisi Aziz Nesin hajviyalaridan ilhomlangani, xususan, Aziz Nesinning “Futbol qiroli” romani ham aynan shu mavzudaligi tasodif emas, albatta. Hikoyada umrida futbol ko’rmagan hasibfurushning birinchi marta hasibini pullash uchun staionga kirib qolgani tasvirlanadi. Hikoya qahramon tilidan bayon etiladi. Hikoyada hajv, kulgu paydo bo’lishiga bosh omil hikoyachi qahramon Shomurod hasibfurushning futbolga nisbatan o’ziga hos munosabatidir. Qahramon stadionda “bitta to’pni ortidan chopib yurgan” yosh-yalanglarni hech tushunmaydi. Hakamga esa achinib qaraydi.

Xulosa qilib aytganda, Anvar Obidjon hikoyalari Abdulla Qodiriy boshlab bergan, Abdulla Qahhor yuqori cho’qqiga ko’targan, G’afur G’ulom, Said Ahmad, Ne’mat Aminov barakali ijod etgan epik hajvchilikni munosib davom ettirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Обиджон.Балога колган футболчи. (хажвий ҳикоялар). Тошкент. 010-йил. 9-бет
2. А.Обиджон. Ерликлар. Катталарга ҳажвиялар. – Тошкент. “Ёш гвардия” нашриёти. 1990-йил, 49- бет
3. А.Макаренко. Бадий ижод ҳақида. –Тошкент. -1960 й, 49-бет.
4. Э.Худойбердиев. Адабиётшуносликка кириш. –Тошкент, ЎАЖБНТ маркази. -2003 й, 119-бет

NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA AYOLLAR OBRAZI VA TALQINI

Oripova Nurafshon Olimjon qizi

tayanch-doktorant

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti

oripovanurafshon@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Nazar Eshonqulning hikoyalarda ayol obrazi va uning ichki dunyosi, ruhiyatining tasviri xususida so’z boradi.

SYSTEM OF USING INTERNATIONAL EXPERIENCES IN ORGANIZING STUDENTS' EDUCATIONAL LESSONS Qudratova Shakhnoza Bakhtiyor qizi.....	777
ВИДЫ НАСИЛИЯ НАД ЖЕНЩИНАМИ И ВЛИЯЮЩИЕ ФАКТОРЫ НАСИЛИЯ Эшанкулова Иродахон Авазхановна	781
BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING KOMPITENTLIGINI OSHIRISHDA O'YIN FAOLIYATINING AHAMIYATI Rasulova Zohida Sindarovna	785
THE ROLE OF BOOKS IN THE CREATIVE DEVELOPMENT OF A CHILD Kholyigitova Bakhor Kimsanboyevna	791
UMURZOQ O'LJABOYEV-ESSENAVIS Normurodova Nargiza Alijonovna	795
ПОНЯТИЕ О НАГРУЗКАХ В ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАНИИ Назаркулов Собир Нематович	798
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALAR TA'LIMINI INDIVIDUALLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI Nosirov E.Sh. Guliston davlat universiteti.....	800
UZLUKSIZ MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA AXBOROT KOMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI NURALIYEVA NARGIZA BOZORBOYEVNA	802
COACHING AS A MANAGEMENT STYLE Nurumbekova Yarkinai Anarmatovna	805
TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI Nusharov Bobir Bolbekovich.....	811
PEDAGOGIK TA'LIM INNOVATSION KLASSTERINI UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TASHKIL QILISH XUSUSIDA. B.I.Omonboev	815
ANVAR OBIDJONNING HAJVIY HIKOYALARIDA MAHORAT MASALASI Oqbo'tayev Elbek Abdurazzoq o'g'li	818
NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA AYOLLAR OBRAZI VA TALQINI Oripova Nurafshon Olimjon qizi	821
PROZADA FOLKLORIZM Primov Abdulatif Abduraximovich	825
OLIY O'QUV YURTLARIDA JISMONIY TARBIYA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH Qurbanov Elyor Ermamatovich	828
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KADRLAR TAYYORLASHNING XUSUSIYATLARI Rahmatova Gulshan Sunnatullo qizi	830
UMUMIY O'RTA TA'LIM JARAYONIDA INTERAKTIV METODLARNING AHAMIYATI Ravshanov Husan Abdiquil o'g'li	834
IMPROVEMENT OF THE METHODOLOGY OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE SPECIALISTS IN THE TEXTILE INDUSTRY BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES Raxmonqulov Akmal Obloqul o'g'li.....	837
MAKTABLARDA TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL QILISHNING AHAMIYATI Oybek Rixsiboyev	840
DIL TEMASLARININ BIR SONUCU OLARAK RUSÇADAKI TÜRKÇE ALINTILAR Saidova Gulrukh Ruziboevna, Kulbayeva S.S.	843
O'QITUVCHI-UMR SHAMCHIROG'I Saidova Shahnoza Isroil qizi.....	845
O'QUVCHILARNI BARKAMOL SHAXS SIFATIDA TARBIYALASH PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA Saitmuratova Maloxat Boymurot qizi.....	847
TA'LIM MUASSASSI RAHBARLARINING BOSHQARUV FAOLIYATINI OLIB BORISHDA KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. Umid Xalmonov	852
ЦВЕТОВЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ВО ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КАРТИНЕ МИРА УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ Б.Б.Собирова, М.У.Солиева	856
OLIY TA'LIMDA BOBURNING "BOBURNOMA" ASARINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA O'QITISH Sariboyeva Maxsuda O'rinboyevna	860
ABDULLA QODIRIYNING SO'Z QO'LLASHDAGI O'ZIGA XOSLIK Xudoyqulova Shoxistaxon Valiyevna.....	865